



**НАУЧНЫЙ  
ИМПУЛЬС**

ЦЕНТР НАУЧНОЙ  
ПОДДЕРЖКИ

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ**

# **НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС**



**Последние  
новости**

**Последние  
образование**

**Последние  
исследование**

## **И НОВЫЕ НАУКИ**



*Международный современный научно-практический журнал*

**Научный импульс**

№ 19 (100)  
Марта 2024 г.

**Часть 1**

Издаётся с августа 2022 года

Москва 2024

<b>O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI ETNOGRAFIK MANBA</b> To'rayev Anvar Ismailovich Karimova Ozoda Murodillo qizi	<b>216</b>
<b>OPERA KELIB CHIQISHI VA UNING RIVOJIGA HISSA QO'SHGAN OVOZ SOHIBLARI</b> Abduvaliyev Asilbek Baxrom o'g'li	<b>221</b>
<b>КЛАССИФИКАЦИЯ РЕЧЕВЫХ ФОРМ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ И ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НЕЯЗЫКОВОЙ АУДИТОРИИ</b> Сайфулина Наиля Атилловна Зарипова Динара Рустамовна	<b>224</b>
<b>TRENDS IN INTERNATIONAL MATHEMATICS AND SCIENCE STUDY (TIMSS) - МАТЕМАТИКА VA TABIIY FANLARDAN O'ZLASHTIRISH DARAJASINI BAHOLASH DASTURI</b> Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li	<b>231</b>
<b>O'RTA TALIM MAKTAB JISMONIY TARBIYASIDA AXLOQIY TARBIYA METODIKASI</b> Urmonov I.I	<b>236</b>
<b>LABGULDOSHLAR OILASI TURKUM VA TURLARI TASNIFI</b> Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li	<b>239</b>
<b>LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI, ULARNI MUHOFAZA QILISH</b> Sayramov Fayzullo Baratjon o'g'li	<b>243</b>
<b>TA'LIM MUASSASASI RIVOJI STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH</b> Sabirova Kimyoxon Qudratovna	<b>249</b>

## O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI ETNOGRAFIK MANBA

**To'rayev Anvar Ismailovich**

*Buxoro Davlat Universiteti "Jahon tarixi" kafedrasi o'qituvchisi*

**Karimova Ozoda Murodillo qizi**

*Buxoro Davlat Universiteti 4-kurs talabasi*

**Annotasiya:** *Maqolada o'zbek xalq amaliy san'atiga kiruvchi kandakorlik, kulolchilik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, zargarlik va kiyim-kechaklarning turli davrlardagi etnografiyasi hamda rivojlantirilishi haqida bayon qilingan. Shuningdek, xalq amaliy san'atining bir turi bo'lgan me'morchilikning Buxoro va Xiva xonliklari, Qo'qon va Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi davridagi o'zgarishlari va rivoji haqida aytib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kashtado'zlik, zargarlik, kandakorlik, kulolchilik, o'ymakorlik, qo'litiq tumor, xalxol, bilaguzuk, sirg'a, misgarlik, kashta, "qalami", choyidish, "chizma", gilvata, madrasa, Ichan qal'a, eklektika.*

### KIRISH

To'plangan etnografik manbalarga asoslanib, hozirgi amaliy-bezak san'ati ikki yo'nalishda rivojlanmoqda: 1. Badiiy hunarmandchilik, bu yo'nalishga Buxorodagi zardo'zlik buyumlari, Xivadagi gilamdo'zlik, Rishtondagi sopolsozlik korxonalari faoliyatini kiritish mumkin. 2. Xalq amaliy bezak san'ati. Bu yo'nalishda, asosan mustaqil ravishda ish olib borayotgan usta hunarmandlar faoliyatini kiritish mumkin. Birinchi yo'nalishga kashtachilik, zardo'zlik, kulolchilik, ganchkorlik, pichoqchilik, mebelsozlik kabilar kirgan. Ikkinchi yo'nalishga me'morchilikning bir qismi bo'lgan-naqqoshlik, zargarlik, misgarlik, kandakorlik kabilar kirgan. Ushbu yuqorida nomlari sanab o'tilgan san'at turlari bilan badiiy hunarmandlarimiz shug'ullangan va hozirgi kunda jahonga mashhur bo'lgan o'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanishiga hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

### ASOSIY QISM

O'zbeklarning ananaviy turar-joylari qadimdan o'ziga xos bo'lib, ular yashagan mintaqaning tabiiy-geografik shart-sharoiti bilan bog'liq bo'lgan. Turar-joylar barpo etishda qurilish konstruksiyasi va uslubi, loyihasi va bezaklari bilan ajralib turgan, mustaqil va o'ziga xos Farg'ona, Buxoror, Xiva va Shahrisabz me'morchilik yo'nalishlari mashhur bo'lgan. Uy-joy qurilishida o'zbeklarda ba'zi bir o'ziga xoslik saqlansa-da, umumiy yagona me'morchilik tipi keng tarqalgan bo'lib, qadimiy uylar odatda ko'cha va qo'shni tomoni derazasiz devor bilan o'ralgan hovlilardan iborat bo'lgan. O'zbekiston me'morligining asrlar davomida avlodan-avlodga o'tib kelayotgan an'analari, qonun-qoidalari XIX asr — XX asr boshlaridagi mustamlaka davrida keskin zarbaga uchradi. Me'morlik ijodkorlari ma'muriyat talabi ostida ishlashga majbur bo'ladi. Me'morlikda ba'zi yangiliklar qatori qorishiq (eklektika), turli uslublar (rus, yevropa va boshqalar) kirib kelayotgan kapitalistik talablar bilan hamohang bo'ldi. Turkiston general-gubernatorligi hududida ham arxitektura o'ziga xos uslubda rivojlandi. Qadimiy shaharlarning rivojlanishi va yangilarining barpo etilishi muayyan me'moriy tartibni qaror toptirishni talab etardi. XIX asr oxiridan har bir shaharda shahar bosh

me'mori lavozimi tayinlandi, u me'moriy me'yorlarning bajarilishini qattiq kuzatib borishi zarur edi. Biroq bu yerda me'morlik san'atining nozik jihatlari to'g'risida uncha qayg'urilmay, ko'proq muayyan vazifani bajarishi lozim bo'lgan imoratlar — maktablar, ma'muriy binolar va h.k. qurilardi. Bu paytda shahar qurilishining metall va betonni joriy etishga asoslangan, davr ruhiga mos yangi usullari rivojlandi[2,221].

Buxoro xonligida madrasalar qurilishiga hukmdorlar katta e'tibor qaratsalar-da, ular xususiy xayr-ehson evaziga faoliyat ko'rsatgan. Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan qurilishi shart bo'lib, xon va amirlar, yirik amaldorlar tomonidan bunday inshootlarni davlat mulkidan bunyod etilishi shariatga xilof hisoblangan. Buxoro madrasalarining binolari asosan pishiq g'ishtdan, ikki qavatli yoki bir qavatli qilib qurilgan. Odatda madrasalar ichki va tashqi sahnga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq va ravoqlarga ega bo'lib, ba'zilarining peshtoqlari, gumbazlari va devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilgan. Madrasalar ichki va tashqi maydoniga ega bo'lgan. An'anaviy tarzda uning birinchi qavatida darsxonalar, kutubxona, masjid, tahoratxona, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar bo'lgan. Xivaning arxitektura qiyofasi asosan XVIII asrning oxirlaridan XX asrning boshlarigacha shakllangan. Dastlab hukmron doiralar maskani ularning saroy, madrasa, maqbara, masjidlari to'plangan - Xiva. Ichan qal'a (shahriston) arxitektura ansambllarining yaxlitligi bilan boshqa shaharlaridan ajralib turadi. Xiva sharqning shahristonlari tarzida rejalashtirib qurilgan. O'zaro ko'ndalang kesishgan ikki katta ko'cha shujumlardan to'rt darvoza orqali rabotga - Dishan qal'aga chiqilgan. Dishan qal'ada kosib - hunarmandlar. savdogarlar va boshqalar yashaganlar. Xiva to'g'ri to'rtburchak tarhli shahriston - ichki shahardir. Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq devorlari deyarli butunligicha saqlangan. Shahriston tomonlarining o'rtalarida bittadan darvozalar qurilganki bu yechim jahon shaharsozligining sinalgan usuli hisoblanadi. Qadimgi Rim istehkomlarida ham shu uslub qo'llanilgan. Xivaning muhim arxitektura yodgorliklari qatorida Ko'hna Ark, Juma masjid. Oq masjid. Xo'ja avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon maqbarasi, Olloqulixon maqbarasi, karvonsaroyi va timi, Qutlug'murod Inoq madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Muhammad amin inoq madrasasi, 163 xonadan iborat Toshhovli saroyi va boshqa inshootlarni keltirish mumkin[6,54].

Xalq amaliy san'ati namunalari bo'lmish Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz yodgorliklari kelajak avlod uchun ijod namunasi bo'lib xizmat qiladi. Bu sohada ijod etgan ustalar haqida ma'lumot berish ayniqsa o'quvchilarning kasb tanlashlarida yordam beradi. "Hunarli kishi xor bo'lmaydi" degan naqlga amal qilib, yosh avlodni kasb-hunarga, san'atga oshno qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanishida Xiva xalq ustasi Abdulla Boltayev, mashhur o'ymakor usta Ota Polvonov, Buxoro xalq ustalari maktabining iste'dodli vakili usta Shirin Murodov, Namanganlik naqqosh Rahimjon Zohidov, usta Qodirjon Haydarov, Nurotalik chevar Oysha Karimova, usta Ortiq Fayzullaev, o'ymakor Ibrohim Komilov, Toshpo'lot Arslonqulov, Farg'onalik Saidmahmud Norqulov, Saidahmad Mahmudov, usta Mahmud Usmonovlarni o'quvchilarga aytib o'tish, ularning ijod namunalarini ko'rsatish, ulardagi san'atni sevish, asrash, ardoqlash go'zallikni sezish ko'nikma va malakalarini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Buxoroning arxitekturaviy ansambllari yuz yilliklar, ming yilliklar davomida shakllangan

bo'lib, ular yagona rejaviy va hajm-fazoviy kompozitsiya bilan bog'liqdir. Buxoro me'morchilik maktabi XV - XVII asrlarga kelib o'tgan davrning eng ilg'or qurilish madaniyati an'alarini yanada rivojlantirgan. Ijodkor arxitektorlar, bilimdon binokorlar va muhandislar. qo'li gul ustalar tomonidan keng ko'lamdagi shaharsozlik ishlari amalga oshirilgan. O'sha davrdagi Buxoro me'morchilik maktabi Markaziy Osiyoda yagona yetakchi kuch sifatida boshqa hududlar me'morchilik va binokorlik maktablarini rivojlantirishga ham katta xizmat qilgan. Buxoroning keyingi davr me'morchilik va binokorlik maktabi usta Shirin Murodov singari XX asrning yirik arxitektorlari tomonidan yanada rivojlantirilgan

Xalq amaliy bezak san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-biridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan material, shakl, tuzilish, rang, bezak, o'lchovlar jihatidan bir-biridan farq qiladi. O'ymakorlik san'atining ajoyib turlaridan biri misgarlikdir. O'zbek misgarlik san'ati juda qadimdan shakllanib, taraqqiy kelgan. Unda sariq va qizil misdan ishlangan turli xil xo'jalik va uy ro'zg'or buyumlari nozik shakllar bilan bezatiladi. Bezatilgan mis asboblari Buxoro, Qo'qon, Samarqand, Qarshi va Xiva shaharlarida ko'proq yasaladi. Misgarlikda bu shaharlar ustalarining o'ziga xos ishlash uslubi bor. Lagan, patnis, choyidish, oftoba va obdastalar misgarlik buyumlari ichida eng ko'p tarqalgan. Amaliy san'atning bu turida buxorolik M.Muhsinov, S.Podchayev, N.Solihov, S.Hamidov, L.Fozilov, T.Qosimov, S.Musinov, D.Halimova, J.Qosimov (Buxoro) X.Saidov (Xorazm), M.Jonbekov, B.Yoqubov, S.Xudoyberdiyev, R.Soibovlar (Toshkent) samarali mehnat qilganlar. Kulolchilik san'atida bezatishning turli usullari qo'llaniladi. Shunday usullardan biri "qalami" usulidir. Bu usulda bezak idishlar naqshlarning rasmi chizib olinmasdan to'g'ridan-to'g'ri mo'yqalam bilan ishlanaveradi. Bu usullarda ko'proq Rishton va G'ijduvon ustalari ishlashadi. Ba'zi joylarda ustalar gilvata bilan gul chizib, keyin bo'yoq beriladigan "chizma" usulidan foydalanishadi. Bu usul toshkentlik ustalar orasida keng tarqalgan. O'zbekistonda kulolchilik san'ati taraqqiyotiga U.Jo'raqulov, A.Muxtorov (Samarqand), U.Umarov, A.Hazratqulov, A.Narzullayev (Buxoro), B.Boisov, R.Matchonov (Xorazm) K.Turobov Yu.Ziyomuhamedov, A.Rahmatov M.Rahimov, R.Orifjonov, A.No'monov, T.Miraliyev, A.Aminov (Toshkent), T.Tillaxo'jayev (Namangan) A.Xudoynazarov (Kattaqo'rg'on), B.Xalilov (Denov), M.Obloqulov (Urgut), aka-uka Hojimirolar (Andijon), X.Rahimova (Buxoro), Sh.Qalandarov (Xo'jayli) va boshqa ustalar katta hissa qo'shganlar[5,44].

O'zbek milliy kashtachiligi amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. Kashta – san'atning bir turi. Kashta kiyimlarni, ro'zg'or buyumlarini bezatishda, ro'zg'or buyumlarini tayyorlashda qadimdan qo'llanib kelingan. Kashta tikishda igna, ilmoqli bigiz, turli rangdagi iplardan, ilmoqsiz bigiz, angishvona, qaychi, to'g'nog'ich va chambaraklardan foydalaniladi. O'zbek milliy kashtachiligi qadimdan hozirga qadar davom etib kelmoqda. Kashtado'zlik har bir viloyatda, tuman va qishloqlarda o'ziga xos tarzda rivojlanib borgan. Masalan, buxoroliklar zardo'z to'n, do'ppi va bezak buyumlari bilan, Chust, Marg'ilon bezak do'ppisi bilan, qashqadaryoliklar kashtali va quroqlardan tikilgan so'zanasi bilan, samarqandliklar kashtali ro'molcha, ko'yлак va urgut chapon (to'n)lari bilan mashhurdir. Buxoro zardo'zlari tikkan to'n, do'ppi, tufli,

so'zana, palaklar, tumor va hamyonlar jahonga tanilgan va jahon bozoridan faxrli o'rin olgan. Qashqadaryolik o'zbek ayollari quroqlardan chiroyli so'zana, yostiq jildlari, ko'rpacha, igna qadagich, oyna xaltalar tikkanlar. O'zbek kashtali ko'ylaklari, belbog' va ro'molchalari, zar tikilgan salla-yu, belbog'lar, bezak buyumlari xalqimizning ko'rki va faxridir. Ko'ylaklarning yengi, yoqasi, etagi va ko'krak qismilariga, to'n chetlariga, yengiga, yostiq jildi o'rtasi va chetlariga, lozimlarning oyoq qismiga har turli kashtalar tikish mumkin[3,25]. O'zbekiston zargarlik buyumlari bosh-manglay va manglay-chakka bezaklari (takya tuzi, tosh, jiqa, sanchoq, sarsuzan, bodomoy, zulfitilla, bosh-tuzi, bibishak, mohi-tilla, ot tuyog'i, duo tuzi, manglay-tuzi, tilla-qosh, qanot-osma, osma-tuzi, tilla-bargak, tanga-tuzi, tilla-tuzi, manot-tuzi, qushini) ga; manglay-chakka bo'yin bezaklari (silsila, to'saukele va shokila)ga, chakka bezaklari (gajak, naycha, qush-duo, butun-tirnoq, yarim-tirnoq, chakkalik, chakka-tuzi)ga, ensa bezaklari (o'q-yoy)ga; soch bezaklari (sochpopuk, tuf, tilla-bargak, tumor, savat)ga; burun bezaklari (aravak, latiba, latbini, xolbini, buloqi, natxuni, natbini, natti va h.k)ga; quloq bezaklari (sirg'a-xalqa, zirak)ga; bo'yin va ko'krak bezaklari (munchoq, xafaband, gulband, tavq, murqak, jevak, tapishe dil, nozigardon, zebigardon, zebisiyna, peshovez yoki bezakkubba, peshixalta, kalitbog'i, bo'yin tumor, ko'krak tumor, aqiq, duo tuzi - libosning boshqa qismlarida ham taqqanlar)ga; yelka qo'ltiq osti bezaklar (qo'ltiq tumor) ga; bel bezaklari (kamar, tugma, sitora)ga; qo'l bezaklari (bilaguzuk, uzuklar)ga va oyoq bezaklari (xalxol)ga bo'lingan. XIX asr o'zbek zargarlik san'atining eng yirik markazlari quyidagilar bo'lgan: Buxoro, Xiva, Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Chimboy, To'rtko'l, shuningdek, Urganch, Andijon, G'ijduvon, Namangan, Marg'ilon, Chust, Urgut, Boysun, Denov, Koson, Nurota, Sherobod[5,48].

#### XULOSA

Amaliy san'at buyumlari vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o'lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundagina, bu buyumlar kishilarni hayajonlantiradi, to'lqinlantiradi, ya'ni ularning ruhiyatiga ta'sir qiladi. Xalq amaliy san'ati turlari xalqlarning ma'lum bir xalqning kelib chiqishi, urf-odati, ananalarini ifoda etgan holda etnografik manba bo'lib ham xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bobojonova.F “Buxoro me'moriy obidalari tarixi”, -Buxoro, “Fan va ta'lim” nashriyoti, -2022;
2. Boltayev A. Xiva arxitektura qoidalari. Toshkent- 2013y;
3. Bulatov.S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1991;
4. Bulatov.S.S., O'.Mansurov Milliy me'morchilikda amaliy san'at falsafasi. – Toshkent, 2005;
5. Goncharova.P.A. Buxoro zardo'zlik san'ati. – Toshkent, 1986;
6. Кадырова Т.Ф.. Бабие вский К.. Турсунов Ф. Архитектура эветского У збеки стан а, М.. 1972;
7. Qosimov S.S. Naqqoshlik. - T.: «O'qituvchi» 1982;

8. То'xtasanova.V. Amaliy san'at turlari (o'quv qo'llanma) - Buxoro : "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2020;
9. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. «Buxoro». 2009;
10. O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. Toshkent, 2006, № 3.